

ASOSIY VOSITALARNI TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH



**ABDUMALIKOV
RAXMATULLO
SHERZODBEK O'G'LI,**
*Toshkent davlat agrar
universiteti
Samarqand filiali 3-kurs
talabasi
O'zbekiston Respublikasi
Andijon viloyati
Paxtaobod tumani*

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp27-30>

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari hisobining xususiyatlari ochib berilib, ta'mirlash xarajatlari hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Asosiy vosita, joriy ta'mirlash, mukammal ta'mirlash, xarajatlar, tannarx, buxgalteriya hisoblari, hisoblar bog'lanishi.

KIRISH

Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda mavjud resurslar: moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga bog'liq. Moddiy resurslardan moddiy resurslar buxgalteriya hisobida ikki katta guruhga: uzoq muddatli va joriy (qisqa muddatli) aktivlarga guruhlanib, hisobga olib boriladi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida uzoq muddatli aktivlar tarkibida asosiy vositalar salmoqli o'rinni egallaydi.

Asosiy vositalardan foydalanish qishloq xo'jaligining xususiyatlaridan kelib chiqib, ulardan qishloq xo'jalik korxonalarida foydalanishda boshqa tarmoq korxonalariga nisbatan ko'proq xarajatlarni talab qiladi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida asosiy vositalar foydalanish muddatlari ham, ularning ma'naviy va jismoniy eskirish muddatlari ham nisbatan tezroq hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar asosiy vositalardan foydalanishda va ta'mirlashda sarflanadigan xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari hisobini olib borishda mukammal ta'mirlashlarning buxgalteriya hujjatlarida o'z vaqtida aks ettirilishi, ta'mirlash xarajatlarning buxgalteriya hisoblarida aks ettirilishi, xarajatlarning xarajat obyektlariga taqsimlanishi va boshqa holatlarda muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari hisobining xususiyatlari va ular hisobining hozirgi holati atroflicha tahlil qilinib, uni takomillashtirish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqishda, iqtisodiy sohada ilmiy-tadqiqotlar olib borishda qo'llaniladigan tahlil va sintez, muammo-ga mantiqiy va tizimli yondashuv, statistik va qiyosiy tahlil, ekspert baholash, taqqoslash, guruhlash kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning barqaror o'sishi, nafaqat qayta ishlash sanoati tarmoqlarining rivojlanishiga, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga va aholining iste'molini qondirishga xizmat qiladi. Shuning uchun mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha sezilarli natijalarga erishilmoqda (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida 2017-2021 yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish dinamikasi¹.

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					2021 yil 2017 yilga nisbatan o'zgarishi	
		2017	2018	2019	2020	2021	Mutlaq	nisbiy,%
1.	Qishloq xo'jaligi ekinlari ekin maydoni, ming ga.	3474,5	3396,0	3309,4	3396,1	3260,7	- 213,8	- 6,2
	O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi	-6,3	-2,3	-2,6	2,6	-1,4	-	-
2.	Qishloq xo'jaligi mahsuloti, trln. so'm	148,2	187,4	216,3	250,3	303,4	155,2	204,7
	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	101,0	100,2	103,3	102,7	103,9	-	-
	Shu jumladan:							
3.	Dehqonchilik	83,3	98,4	111,9	123,9	152,1	68,8	182,6
	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	98,2	95,8	104,8	103,2	104,3	-	-
4.	Chorvachilik	64,9	89,0	104,4	126,4	151,3	86,4	233,1
	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da	104,1	105,7	101,6	102,1	103,5	-	-

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Respublikamiz bo'yicha 2017 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda ekin maydoni kamayganligiga qaramasdan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish muttasil o'sgan. Faqat bunda qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibida o'zgarish sodir bo'lgan bo'lib, 2017 yilda qishloq xo'jaligi mahsu-

¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

lotining 43,8 foizi chorvachilik mahsuloti bo'lgan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 49,9 foizni tashkil etgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi bilan bir qatorda, ularni saqlash va maqsadga muvofiq foydalanishni to'g'ri tashkil etish lozim. Asosiy vositalardan samarali foydalanish hamda ularni doimo foydalanish holatida saqlash uchun ular vaqti-vaqti bilan ta'mirlanib turadi.

Asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari asosiy vositalar hisobining ajralmas qismi bo'lib, 16-son "Mulk, zavod, mashina va asbob- uskunalar buxgalteriya hisobining xalqaro standarti" (BHXS (IAS)) va 5-son "Asosiy vositalar buxgalteriya hisobining milliy standarti" (BHMS) bilan tartibga solinadi. Shuningdek, 5-son "Asosiy vositalar" BHMSning xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi.

Biroq bugungi kunda xalqaro standartlarga muvofiq ravishda asosiy vositalar ta'rifi, tan olish mezonlari, sinflari, mulk (yer), zavod, mashina va asbob-uskunalarni davomiy baholash, amortizatsiya usullari, qadrsizlanishi hisobi, tugatish qiymatini aniqlash kabi muammolar bilan birga asosiy vositalar ta'miri xarajatlarning hisobi bo'yicha ham mavjud muammolar hal etilmagan.

Asosiy vositalar obyektlarini ishchi holatda ushlab turish ularni ta'mirlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Joriy ta'mir - asosiy vositalar obyektni ishchi holatida ushlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ta'mirlashdir. O'rta ta'mirda ta'mirlanadigan agregatni qisman ajratib yig'ish yoki detallar qismlarini qayta tiklash yoki almashtirish amalga oshiriladi. Uskuna va transport vositalarini kapital ta'mirlash agregatni to'liq ajratib yig'ish, bazaviy va korpus detallari va uzellarni ta'mirlash, barcha eskirgan detallar va uzellarni almashtirish yoki tiklash hamda agregatni yig'ish, sozlash va sinash amalga oshiriladigan ta'mirlashdir.

Obyektni ishchi holatida ushlab turish va undan foydalanishda kelgusidagi iqtisodiy manfaatning dastlab aniqlangan ma'lum summasini olish maqsadida amalga oshirilgan xarajatlar ular tegishli bo'lgan hisobot davri xarajatlari tarkibida olib boriladi. Ishlab chiqarish asosiy vositalarini ishchi holatida saqlab turish xarajatlari va ishlab chiqarish asosiy vositalarining barcha turdagi ta'mirlashini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga, ma'muriy va ijtimoiy, madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan asosiy vositalar obyektlari bo'yicha esa davr xarajatlari tarkibida olib boriladi.

Hozirgi kunda amalda bo'lgan buxgalteriya hisobining me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosida asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari ta'mirlash turidan qat'i nazar, asosiy vositalar xizmat ko'rsatadigan tarmoq xarajatlari tarkibida olib boriladi. Ushbu xarajatlar asosiy vositalar kapital remont qilinganda xarajatlarning salmoqli ulushiga ega bo'ladi. Shuning uchun asosiy vositalarni kapital ta'mirlash xarajatlari uchun belgilangan tartibda rezerv yaratish va kapital remont xarajatlari shu rezerv hisobidan moliyalashtirishga ruxsat etiladi. Albatta, yaratiladigan rezerv tartib subyektning "Hisob siyosati"da aks ettirilgan bo'lishi lozim.

XULOSA

Asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari hisobini takomillashtirish maqsadida yuqorida qayd etilgan mavjud muammolarni hal etish bo'yicha olib borilgan ta-dqiqotlar natijasida quyidagilar taklif qilindi:

- asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlarini ta'mirlash usuli bo'yicha hamda alo-hida hisobga olib borish bo'yicha tegishli analitik hisoblar ochish;
- asosiy vositalarni kapital ta'mirlash xarajatlarining xarajat obyektlariga yillar bo'yicha teng ulushlarda taqsimlanishini ta'minlash uchun, asosiy vositalarni ka-pital ta'mirlash uchun rezervlar tashkil etish;
- asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlarini muntazam ravishda nazorat qilib bo-rish.

Yuqoridagi takliflarimiz asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari hisobini bux-galteriya hisobining xalqaro standartlari asosida olib borishini ta'minlashi bilan birga xo'jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalardan foydalanish muddatla-rini uzaytiradi, ta'mirlash xarajatlari hisobiga mahsulot (ish, xizmat) tannarxining iqtisodiy asoslanmagan holda oshib ketishining oldini olib, moliyaviy natijani ob-yektiv aniqlash imkonini beradi, natijada boshqaruv qarorlari samaradorligi oshib, barqaror rivojlanish ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Buxgalteriya hisobi to'g'risida (Yangi tah-rirda)". 2016 yil 13 aprel. [www. lex.uz](http://www.lex.uz).
2. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti № 5 "Aso-siy vositalar". [www. lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 16-son "Mulk, zavod, mashina va asbob- uskunalar". [www. lex.uz](http://www.lex.uz).
4. Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. -T.: "Innovatsion rivo-jlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020 y.
5. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>